

TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIYALARI

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti doktoranti

Xasanova Shohista Mirzaahmad qizi

Tanqidiy fikrlash hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir fazilatdir. Bu nafaqat mantiqiy fikrlashni, muammolarni hal qilishni va yangiliklar yaratishni o'z ichiga oladi, balki insonning qaror qabul qilish, atrofdagi voqealarni anglash va oqilona harakatlar qilishini ham ta'minlaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun alohida ilmiy daraja yoki unvonga ega bo'lish zarur emas. Bu fazilat yosh, tajriba yoki IQ darajasi bilan bog'liq bo'lmagan, balki ongimizdagi farazlarimizni tekshirish va tahlil qilish orqali erishiladigan ko'nikmadir. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning asosiy qadamlari, farazlarni ilg'ash, ularni tahlil qilish, har bir hodisaga turli burchaklardan qarash va oqilona chora ko'rish, bizning hayotimizda yuz beradigan voqealar va qarorlar uchun muhimdir. Ta'limda tanqidiy fikrlashni o'rgatishning ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki bu usul orqali o'quvchilar faqatgina tilni o'rganibgina qolmay, balki hayotiy vaziyatlarni chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Inson bolaligidan tortib ulg'aygunicha atrof muhitning sindirib kelgan farazlariga ergashadi, ishonadi va suyanadi. Brukfeldning (2012) ta'kidlashicha tanqidiy fikrlashning birinchi qadami bu mavjud bo'lgan farazlarni aniqlab olib yuzaga chiqarishdir. Ikkinchi qadam bu farazlarni tahlil qilib asosli, asossiz, foydali, zararli turlariga bo'lib olish. Uchinchi boshqich bu voqea-hodislarga har hil burchakdan boqishdir. Ko'p holatlarda biz atrofdagi hodisdalarga bir tomolama baho berib, tor doirada fikr-mushohada qilamiz va asossiz xulosalar chiqarishimiz mumkin. Ko'p tomonlama nazar solishni o'rganish keng doirada va chuqur fikrlashga yordam beradi. Ohirgi to'rtinchi bosqich bu mushohadali choralar ko'rish. Aslida tanqidiy fikrlashni o'rganishdan maqsad ham oqilona harakatlar qilishni o'rganish. Zero hayotda yuz bor ahmoqona harakatlar qilib vaqt va

resurslarni behis sarflagandan ko'ra bir bora tanqidiy fikrlash asoslarni o'zlashtirgan ma'qul. Ahir har bir harakatimizning kelajakda oqibatlari mavjud. Oqilona qaror bu dalillarga va tahlillarga suyangan, ishonchli asoslarga ega qarordir. Tanqidiy fikrlashni o'zlashtirish uchun bu to'rt boshqichdan o'tishni Brukfild o'z asarlarida olg'a surgan.

Tanqidiy fikrlash ta'limda tafakkur etishning samarador usuliga aylandi, zero hozirgi turli hil va murakkab ideologiyalar davrida qanday qilib ishonchli va foydali ma'lumotlarni olishni bilish juda muhimdir. Tanqidiy fikrlashning ahamiyati va samaradorligi ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda sinovdan o'tgan. Brukfildning fikricha "biz tanqidiy fikrlash orqali muammolarning negizida yotgan fundamental farazlarni yuzaga chiqaramiz". Brukfild (2012) yana shuni ta'kidlaydiki ideologiyalar bu oiladan, maktabdan, jamiyatdan, ahborot vositalaridan va siyosat namoyondalaridan inson ongiga kirib kelgan farazlar bo'lib, ular jamiyatlarni quruvchi ta'bbiy omillar hisoblanadi. Shunday ekan tanqidiy fikrlash nafaqat mantiqiy fikrlashga yoki muammolarni hal qilishga yordam beradi balki jamiyat va ahborot vositalari tasirida shakllangan turli hil ideologiyalarning ildizini aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki tanqidiy fikrlashni ta'limda joriy qilish oson usul emas ,aksincha o'z ichiga bir necha strategiyalarni oladi. Feroud va Alamning (2022) fikricha tanqidiy fikrlashning olti bosqichi mavjud: oldindan ko'rish, izohlash, umumlashtirish, tahlil qilish, qayta o'qish va javob berishdan iborat. Tsai va Vuning (2022) nazarlariga ko'ra tanqidiy fikrlash uchun "ovoz chiqarib o'ylash" katta yordam berar , zero ovoz chiqarib har bir fikrni bayon qilganda aqliy jarayonni yaqqol kuzatish mumkin . Ammo ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki bu jarayon uchun uzoq vaqt talab qilinishi mumkin. Karrigus (2002)ham tanqidiy fikrlash uchun to'rt boshqichdan iborat strategiya taklif qilgan: o'qigan yoki eshitgan ma'lumotini ko'zdan kechirish va so'ngra materialni sintez qilish, umumlashtirish, baholashdir . Shuningdek Xuji (2010) tanqidiy fikrlashni to'rtta boshqichda olib borishni da'vat etgan: tizimli tahlil, ritorik tahlil, ijtimoiy ahamiyatga egalik va yaxlit baholash. Birinchi va ikkinchi bosqichlar

kontekstni anglashga aloqador bo'lsa, uchunchi bosqichda o'quvchining kontekstga aloqador o'tmishda olingan ma'lumotlarni yuzaga chiqarishdir. To'rtinchisi bosqichda tahlil qilish, dalillarni to'plash, manbalar va mafkuralarni so'roq qilishda amalga oshadi.

Tanqidiy tafakkur etish o'qish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Xo'sh tanqidiy fikrlashni o'quv dasturiga kiritish qanchalik muhim? Bir tomondan tanqidiy fikrlashni ingliz tili darslarining bir qismi sifatida o'rganish o'quv jarayonini tezlashtirib, zavqga to'ldiradi. Shuningdek ingliz tilida ma'lumotlarni tanqidiy o'qiy olish va eshita olish umumiy ingliz tili darajasini rivojlantirishga kata hissa qo'shadi. Ammo tanqidiy fikrlashni o'quv jarayoniga kiritishning o'z qiyinchiliklari mavjud. Yuan & Stapletonning (2019) tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni qo'llash uchun potentsial to'siqlar maktabning ichki qa'ttiy siyosati bo'lgan. Shuningdek o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashni o'rgatish bo'yicha sayoz va chegaralangan bilimlari tanqidiy fikrlashni samarali o'qita olmaslikka sabab bo'lgan. Undan tashqari bir tadqiqot natijalariga ko'ra o'quvchilar tanqidiy fikrlashni murakkab savolardan iborat yangi fan deb o'ylashgan. Shunga qaramasdan tanqidiy fikrlashning sistematik strategiyalardan habardor bo'lgan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichi ikki barobar oshgan. Ular o'qigan ma'lumotlarining asosiy ma'nosini anglashni o'rganishgan. Shunday ekan tanqidiy fikrlashni o'quv jarayoniga kiritish o'quvchilarning fikrlash darajasini pastdan yuqoriga olib chiqqan. Ammo tanqidiy fikrlashni o'quv dasturiga kiritish qadambaqadam jarayon bo'lmog'i zarur. Avvalo til o'qituvchilari ta'limida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun boy va haqiqiy materiallarni taqdim etish kerak. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, talabalar o'qituvchilarining ingliz tiliga oid global muammolari va ularni turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda o'qitish usullarini o'rganishi muhimdir. Sinflarda global muammolar bo'yicha guruh muhokamasi bo'lajak o'qituvchilarning darslarini yanada interaktiv qiladi, shuningdek talabalar hayotiga bog'liq muammolarni tahlil qilish, sintez qilish va baholash tanqidiy fikrlashning ilk qadamlaridir.

Tanqidiy fikrlash – bu murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u har bir

insonni ongli va oqilona fikrlashga o'rgatadi. Tanqidiy fikrlashni ta'lim jarayoniga kiritish o'quvchilarning fikrlash darajasini yuqoriga ko'taradi, ularga global muammolarni tahlil qilish, sintez qilish va baholash imkonini beradi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni o'rganish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning ijtimoiy va madaniy ongini ham shakllantiradi. Biroq, bu jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun talabalar va o'qituvchilarda to'g'ri pedagogik yondashuv va metodika bo'lishi zarur. Tanqidiy fikrlashni o'rgatish orqali biz o'quvchilarga mustaqil fikr yuritish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni tahlil qilish va ularni oqilona hal qilishni o'rgatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Brookfield, S.D. (2012). Reading and writing critically. *In Teaching for critical thinking* (pp. 129-155). United States of America.

Ferdous, Z. and Alam, M. (2022). Exploring the Meaning of Critical Reading. *Language in India*, 22:7 248-252. ISSN 1930-2940

Huijie, L.I. (2010). Developing a hierarchical framework of critical reading proficiency. *Chinese Journal of Applied Linguistics (Foreign Language Teaching & Research Press)*, 33(6), 40-54.

Carrigus, R. (2002). *Design in reading: An introduction to critical reading*. New York: Longman.

Tsai, M. J., Wu, A. H., Braten, I., Wang, Ch. Y. (2022). What do critical reading strategies look like? Eye-tracking and lag sequential analysis reveals attention to data and reasoning when reading conflicting information. *Computers & Education*, 187 1-15.

Yuan, R., Stapleton. (2020). Student teachers' perceptions of critical thinking and its teaching. *ELT Journal*, 74(1), 40-48.